



THE IMPORTANCE OF PILGRIMAGE IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM IN A GLOBALIZED WORLD

Risolat Muqimova

Chirchik State Pedagogical University

Researcher of the "History of Uzbekistan" department.

Shoira Jumayeva

Scientific supervisor, doctor of philosophy (PhD) in history

Chirchik State Pedagogical University

Head of the "History of Uzbekistan" department.

GLOBALLASHGAN DUNYODA YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ZIYORATGOHLARNING AHAMIYATI

Muqimova Risolat Rustamjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası tadqiqotchisi.

Shoira Berdiyrovna Jumayeva

Ilmiy rahbar, tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“O‘zbekiston tarixi” kafedrası mudiri.

Yoshlar-kelajak bunyodkorlari.

Sh.M.Mirziyoev.

Kelajakda tinch va osuda hayot kechirishimiz, ozod va obod vatanda farovon yashashimiz har tomonlama yoshlarga bog'liq. Yoshlarning qanday inson bo'lishi esa ularga berilayotgan ta'lim-tarbiyaga natijasidir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Yurtimizda yoshlarga, barkamol avlodga berilayotgan e'tibor, ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doirasi yildan-yilga kengayib bormoqda. Bugun yoshlarimiz tomonidan erishilayotgan ulkan yutuqlar zahirida istiqbolning ilk yillaridan boshlab yoshlar tarbiyasi, ta'limi, umuman kadrlar tayyorlash tizimida amalga oshirilgan islohotlar mujassam.

Qadimdan dono xalqimiz yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondashishgan. Ayniqsa vatanga muhabbat, ona yurtiga sodiqlik, vatanparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantirish tarbiyaning eng muhim jihati hisoblanib, bunday tuyg'ularni yosh avlodda shakllantirishda uchun turli vosita va usullardan foydalanilgan.

Jumladan, xalqimizning buyuk tarixi, ajdodlarimizning donishmandligi, betakror madaniy va manaviy merosimiz–vatanga muhabbat, sadoqat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi. Ana shunday tarbiya o'choqlaridan biri asrlar davomida shakllangan, o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri ziyoratgohlar hisoblanadi. Zero, milliy ma'naviyatimizni azal-azaldan e'zozlab kelinayotgan muqaddas ziyoratgohlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, ziyoratgohlar kishilar ongida ezgulik manbai, har bir insonni mehr–muruvvatga chorlovchi, tug'ilib o'sgan joyiga, vataniga mehr va iftixor tuyg'ularini uyg'otuvchi muqaddas joy vazifasini ham o'tab kelgan. O'z navbatida esa har bir oiladagi farzandlar yoshligidan ziyoratgohlarga ijobiy munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalangan.^[1]

Kelajak avlodlarimizga shu muqaddas zamin tarixi, uning azizligiga sabab bo'lgan buyuk zotlar haqida ma'lumot yetkazish–sodiq va fidoiy insonlarni tarbiyalashning muhim omilidir. Binobarin, tarixini, avlodu ajdodini, naslu nasabini anglash inson ichki dunyosini boyitadi. Vatan va millat sha'niga dog' tushuruvchi yaramas illatlarga moyillashuvning oldini oladi. Tafakkur olamini kengaytirib, tubanlikdan ogoh etadi ^[2]. Globallashuv jarayonlari tez sur'atlar bilan ketayotgan bugungi kunda yoshlar tarbiyasi yanada dolzarb qiyofa kasb etmoqda.

1-rasm. Zangiota majmuasi

Bugungi kunda yurtimizda jami 7 ming 476 moddiy madaniy meros ob'ekti davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 4 ming 308 tasi arxeologiya yodgorligi, 2 ming 79 tasi arxitektura yodgorligi, 694 tasi monumental san'at yodgorligi, 395 tasi esa diqqatga sazovor joy sanaladi.



Zohiran, yurtimizning tabiiy boyliklari ko'zlarni qanchalar sevintirsa, ma'naviy bisoti botinan iftixor va havas tuyg'ularini uyg'otadi. Istiqlol yillarida birinchi Prezident I.A.Karimov rahnamoligida mamlakatimizda madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasida izchil ishlar olib borildi.

Mazkur sohada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab olinib, bugungi kunda ham davom ettirib kelinmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uzoq

tarixga ega muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilishga, ularni qayta ta'mirlash-tiklash ishlariga, madaniy meros ob'ektlarini imkon qadar asl

ko‘rinishida saqlab qolishni ta‘minlashga, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish borasida ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuni ta‘kidlash lozimki, ziyorat turizmi va ziyorat nafaqat mahalliy aholi, davlat idoralari, xususiy korxonalar hamda diniy tashkilotlarga iqtisodiy foyda keltiradi, balki odamlarni ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, sayohatchilar va mahalliy aholi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik muhitini yaratib, siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy inqiroz bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yordam beradi. Umuman olganda, tabarruk qadamjo va ziyoratgohlar nafaqat diniy-ma‘naviy markaz sifatida, balki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlovchi strategik yo‘nalishlardan biri sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Qadimdan muqaddas joylarni ziyorat qilish kishilar ruhiyatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Kishilarning xulq, madaniyatini yuksak saviyada bo‘lishida muqaddas ziyoratgohlar muhim ahamiyat kasb etgan. Zero, muqaddas joylarni ziyorat qilish odamlarni harom-harish yo‘llardan uzoq yurishga, insofli, diyonatli bo‘lishga, o‘zidan faqat yaxshilik qoldirish singari xayrli ishlarga undab kelgan. Ularda tarbiya, axloq, odab, o‘zaro dustona munosabatlar, qarindoshlik, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning yanada qalinlashuviga zamin yaratgan. Shu sababli xalqimiz milliy qadriyatlarida ziyoratga borish oilaviy an‘ana tarzida saqlanib qolgan.



**2-rasm. Amir Temur maqbarasi.
(Samarqand)**



**3-rasm. Islom Karimov
maqbarasi. (Samarqand)**

Taniqli olim G‘aybullas-Salom ta‘kidlaganlaridek “Yurtimiz shunday muqaddas makonki, qayerida yurmagin, qadamingni ehtiyot bo‘lib tashlashing kerak: chunki uning har bir toshi yoki kesagi buyuk bir zotning xoki bo‘lishi mumkin!”

Qadimda “Turon”, “Movarouunnahr” deb ulug‘langan, o‘tmishda “Turkiston” deb qadrlangan va hozirda “O‘zbekiston” nomi dunyoga mashhur mamlakatimizda ko‘plab tabarruk zotlarning qabrlari, qadamjo va ziyoratgohlari mavjud. Asrlar davomida xalqimizning hurmat va e‘tibori bilan bu maskanlar muqaddas ziyoratgoh darajasida e‘zozlanib kelmoqda. Bu ixlos avloddan avlodga yetkazilganligi bois davrlar, zamonlar va siyosatlar tazyiq hamda qatag‘onlari qanchalik rahna solmasin, ularning ziyorati hanuzgacha davom etmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muqaddas maskanlar, tarixiy obidalarga tashrif uyushtirish yosh avlodda o‘z avlod ajdodlariga hurmat, o‘zligini anglash, nasl-nasabi bilish bilan bir qatorda o‘ziga nisbatan ishonch, milliy g‘urur, tug‘ilib o‘sgan joyiga hurmat, vataniga



muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida ba'zi bir yoshlarimiz o'z tarixini yaxshi bilmaslik tufayli ota-bobolari, ajdodlari tarixiy merosi, urf-odatlar va madaniyatidan uzilib kolayotgani, oxir-oqibatda ular o'rtasida turli kuchlar ta'siriga tushib qolish xavfi kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ayrim nosog'lom kuchlar, guruhlar va oqimlar tarixni ma'naviy va mafkuraviy qurolga aylantirib, o'z manfaati yo'lida zararli g'oyalarni yoyishga urinayotganligi sir emas.^[3] Ommaviy madaniyat ta'sirida milliy qadriyatlarimiz unitilmoqda. Shu boisdan ham hozirgi murakkab davrda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni asl holida anglab yetish, turli mazhablar, oqimlar va yo'nalishlar ta'siriga berilmaslik orqali "urushsiz dunyo" va osoyishta hayotga erishish tinchliksevar kuchlar, xalqlar, millatlar va elatlarning bosh maqsadiga aylangan. Va bu maqsad yo'lida millati, dinidan qat'iy nazar yakdillik bilan harakat qilish lozim. Zero, bugungi kun yoshlarimiz tarbiyasi, ertangi kunimizni belgilab beruvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Abdulahatov, O'.Eshonboboev "Ko'hna Marg'ilon ziyoratgohlari"-Farg'ona-2007.
2. S.M.Nurotoiy, M.Ablaev "Turonzamin aziz avliyolari va ulamolari tazkirasi"-Toshkent-2015.
3. "Tarixiy xotira va mustaqillik"-Toshkent-2016.